




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12(50)2022

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

Научно-реферативный,

духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (50)

2022

декабрь



Received: 20.10.2022
Accepted: 29.10.2022
Published: 20.11.2022

UDK 614:616.1-056.25-084

SEMIZLIKNING YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARINING TARQALISHIDAGI AHAMIYATI

Omonova G.S.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

✓ *Resume*

Semizlik aholi orasida o'nlab noinfektsion kasalliklarning paydo bo'lishida eng yetakchi xavf omillardan biri sanalib, o'ta muhim tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Dunyoda hozirda 250 mln dan ortiq bemor odamlar semizlikdan aziyat chekadilar. Bu degani yer yuzi aholisining 7% degani. Agar holat shu sur'atda davom etsa 2025-2030 yillarga borib semizlik aholi orasida ikki barobarga oshadi degani. JSSTning bergan ma'lumotiga qaganda planetamizda 22 mln 5 yoshgacha bolalar va 155 mln maktab yoshidagi bolalarda semizlik qayt etilgan. Keyingi davrlarda bolalar va o'smirlar orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklari yetakchi o'rinni egallab, oxirgi o'n yilliklarda uning tarqalganlik darajasi deyarli 3 barobarga oshgan. Aholi orasida, shuningdek bolalarda ham semizlikning oshishi jamiyatda ko'plab noinfektsion, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yurak qon-tomir tizimi, jumladan yurakning ishemik kasalliklari, arterial qon bosimi, miokard infarkti, tserebrovaskulyar kasalliklar, shuningdek qandli diabet va boshqa qator kasalliklarning oshishiga va yasharishiga sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Tana vazni, semizlik, kasalliklar, tarqalganlik, aholi, bolalar, ijtimoiy, ortiqcha, yurak, qon-tomir.

ЗНАЧЕНИЕ ОЖИРЕНИЯ В РАСПРОСТРАНЕННОСТИ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Омонова Г.С.

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

✓ *Резюме*

Ожирения является одним из ведущих факторов риска возникновения десятков неинфекционных заболеваний среди населения и является одной из наиболее актуальных проблем, имеющих большое медико-социальное значение. В настоящее время в мире насчитывается более 250 миллионов больных людей, страдающих ожирением. Это означает 7% населения мира. Если ситуация будет продолжаться такими темпами, то к 2025-2030 годам ожирение среди населения удвоится. По данным ВОЗ, 22 миллиона детей в возрасте до 5 лет и 155 миллионов детей школьного возраста на планете имеют избыточный вес. В последние годы сердечно-сосудистые заболевания стали ведущей причиной смерти детей и подростков, а за последние десятилетия их распространенность увеличилась почти втрое. Ожирения у населения, в том числе, у детей привело к увеличению и омолаживанию в обществе многих неинфекционных и социально значимых болезней, таких как сердечно-сосудистые заболевания, среди которых ишемическая болезнь сердца, повышенное артериальное давление, инфаркт миокарда, цереброваскулярные заболевания, а также сахарный диабет и ряд других заболеваний.

Ключевые слова: масса тела, ожирение, заболевание, распространенность, население, дети, социальные, избыточная масса тела, сердечно-сосудистые заболевания, фактор риска.



THE SIGNIFICANCE OF OBESITY IN THE PREVALENCE OF CARDIOVASCULAR DISEASE

Omanova G.S.

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy

✓ Resume

Overweight is one of the leading risk factors for dozens of non-communicable diseases among the overweight and obese population and is one of the most urgent problems of great medical and social importance. Currently, there are more than 250 million obese people in the world. This means 7% of the world's population. If the situation continues at this rate, this means that obesity among the population will double by 2025-2030. According to WHO, 22 million children under the age of 5 and 155 million school-age children worldwide are overweight. In recent years, cardiovascular disease has become the leading cause of death in children and adolescents, and its prevalence has nearly tripled in recent decades. The increase in overweight and obesity in the population, as well as in children, has led to an increase and rejuvenation in society of many non-communicable, socially significant diseases such as cardiovascular diseases, including coronary heart disease, high blood pressure, myocardial infarction, cerebrovascular diseases, as well as diabetes and a number of other diseases.

Key words: body weight, obesity, disease, prevalence, population, children, social, overweight, cardiovascular disease, risk factor.

Dolzarbligi

Bugun dunyoning ko'plab davlatlarida, jumladan O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida ham semiz odamlar va ular orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining tarqalishi hamda uning natijasida yuzaga kelayotgan nogironlik va o'lim ko'rsatkichlari muhim tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. JSSTning ma'lumotiga ko'ra yurak-qon tomir tizimi kasalliklari (YuQTTK) sababli sodir bo'layotgan o'lim holatining asosiy sabablaridan biri bo'lib, yer qurrasida har yili 17,3 mln odam, shu jumladan yurakning ishimik kasalliklaridan 7,3 mln kishi, miya insultidan 6,2 mln kishi vafod etadi. Ayniqsa bu o'rtacha va past daromadga ega bo'lgan davlatlarda yuqori darajada saqlanib qolmoqda va holat shu tariqa davom etsa bu ko'rsatkich, 2030 yilga borib 23,3 mln kishiga yetish istiqboli aytilmoqda. Har yili butun yer yuzida sodir bo'layotgan o'limning 31,5%i YuQTTK hisobiga to'g'ri keladi [12]. Volobuev D.K. va V.N.Rijaevalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda Rossiyada jami kasalliklar ichida qon aylanish tizimi kasalliklari 14%ni tashkil etib, har 100 ming kishiga 2284,6ga teng bo'lgan, o'lim sabablarining 49,9%ini, ya'ni, har 100 ming kishiga 653,7ni, shu sinfga oid kasalliklar ichida yurakning ishimik kasalliklaridan o'lim 50%ni tashkil etgan. G.P.Artyunina va T.M. Komatdresovalarning (2018) [1] ilmiy xulosalari bo'yicha yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining tibbiy-ijtimoiy dolzarbligi shundaki, birinchidan tizim kasalliklari sababli vaqtincha mehnatga yaroqsizlik va favqulotda sodir bo'ladigan o'lim darajasi yuqori. Qolaversa asosiy patologiya –ateroskleroz uzoq yillar davomida belgisiz kechadi, infarkt miokard, insult kasalliklari sababli o'lim kutilmaganda sodir bo'ladi, eng asosiysi yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining yuzaga kelishi ko'p hollarda odamlarning sog'lom turmush tarzi, psixofiziologik omillar bilan bog'liq, va uni nazorat qilish mumkin, qolaversa kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish aholi orasida kasallanish va o'limni pasaytirishga olib keladi.

L.I. Lavlinskaya, Ye.A.Chernix va b.larning (2008) [24] ta'kidlashlaricha, ishlovchilar orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklari taxlili shuni ko'rsatganki, sinfga oid kasalliklar ishchilarning yoshlari oshishi bilan uning darajasi ham o'sib borgan va kasalliklarning yarimidan ko'pi 55-64 yosh va undan kattalarga to'g'ri kelishi aniqlangan. Bu ko'rsatkich erkaklar orasida -53,6%ni, ayollarda 46,4%ni tashkil etib, erkaklarda kasallanish 7,2%ga yuqori ekanligi qayd etiladi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari o'lim sabablari va har xil hayotiy cheklovlarning asosini tashkil etadi. Yurak-qon tomir kasalliklariga olib keluvchi sabablardan biri bu semizlik va tanadagi ortiqcha vazn, irsiy omillar, moddiy yetishmovchilik kabilar sanalib, asosan 55 yoshdan oshgan katta yoshli odamlarda ko'proq kuzatilmoqda. Semizlik va ortiqcha vazn yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining

yuzaga kelishida asosiy va yetakchi omillardan biri sanaladi. Negaki, semiz kishilarda tanadagi juda katta miqdordagi yog' xujayralarni qon bilan ta'minlashda, ayniqsa gavdaning aylanasi ayollarda 80 sm va erkaklarda 90 sm dan yuqori bo'lishi aynan yurak qon-tomir tizimi kasalliklarning yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek tamaki chekish ham odam umrining kamida 20 yilga qisqarishiga va yurak qon-tomir kasalliklaridan vafot etishni 5 barobarga oshiradi. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining aholi orasida oshishiga noto'g'ri ovqatlanish ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Bu tarzda ovqatlanish birinchi galda semirishga va oxir-oqibat yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining oshishiga sabab bo'ladi. Ametov A.S., Pashkova Ye.Yu. va boshqalarning (2019) [3] ta'kidlashlaricha, semizlik noinfektsion kasalliklarning rivojlanishida muhim va nisbatan kuchliroq ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi. Mualliflarning ilmiy xulosalariga qaraganda, Rossiya Federatsiyasida semizlikning tarqalganlik darajasi 29,7% ni tashkil qilgan. E'tiborli jihati shundaki, 2011-2015 yillar orasida katta yoshli aholi orasida semizlik 2,3 marotabaga oshgan. Bu o'z navbatida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining oshishiga sabab bo'lishi ta'kidlangan va eng muhimi, bu aynan ushbu bemorlarda kasalliklarni samarali davolashga to'siq bo'lishi alohida qayd etiladi. 1980-2008 yillarda butun dunyoda semiz odamlar soni 1,4 milliard oshgan.

Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari asoratlarining muhim jihatlaridan biri bu nogironlikka chiqish hisoblanadi. M.A. Shugayaning (2017) ilmiy ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyada tizim kasalliklaridan nogironlik 61,9% ni tashkil qilgan. Ayniqsa nafaqa yoshidagilarda yurakning ishemik kasalliklaridan nogironlik 58,9%ni va qon bosimidan 40,9%ni tashkil etgan. Podzolkov V.I., Podzolkova N.M. va boshqalarning (2014) ilmiy ma'lumotlariga qaraganda 2010 yilda Rossiyada o'lim sabablarining 56,7% ini yurak qon-tomir tizimi kasalliklari tashkil etgan. Yevropada har yili yurak qon-tomir tizimi kasalliklaridan 4,1 mln odam olamdan o'tadi, bu barcha o'lim sabablarining 46% ini tashkil etadi. Shu jumladan yurakning ishemik kasalliklaridan 1,8 mln (o'lim tarkibining 20%i), 1,1 mln odam miokard infarktdan (o'lim tarkibining 14%), boshqa yurak kasalliklaridan 1,1 mln (14%) odam vafot etadi. Pogosova N.V., Oganov R.G. va boshqalarning (2014) ilmiy natijalariga qaraganda O'zbekistonda 2018 yilda o'lim sabablari bo'yicha yurak qon-tomir tizimi kasalliklari 60,3 % ni tashkil qilgan.

Rossiyada ortiqcha tana vazn va semirish mavjud odamlar umumiy aholining 51%ini, Amerikada - 61%ini, Buyuk Britaniyada -51%ini, Xitoyda-15%ini, O'zbekistonda 52%ni tashkil qiladi. Deyarli barcha mamlakatlarda semizligi va ortiqcha tana vazni bo'lgan hamda yurak qon-tomir kasalligi bilan murojaat qilayotgan bemorlarning soni ikki barobar oshishi kuzatilmoqda. O.L.Barabash, V.N. Karetnikova va boshqalar (2016) [4]. Ye.B. Iskakovning (2017) [18] ta'kidlashicha, yurak qon-tomir kasalliklari ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo keltirib chiqaradigan masalalardan biri sanaladi. Kasallanish yil sayin oshib borib, undan nogironlik va o'lim darajasi ham o'sib bormoqda. Uni dunyo mamlakatlarida pasaytirishning birdan-bir usuli bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish deb hisoblaydi muallif. Har yili Amerikada 63 yoshdan katta aholidan 815 000 odam yurak qon-tomir tizimi kasalliklaridan vafot etadi. Jumladan ularning 230 000 tasi rivojlangan Yevropa davlatlaridan. Amerikada ushbu muammo uchun har yili 420 mlrd. dollar mablag' sarflanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotiga qaraganda Rossiyada va Yevropaning boshqa mamlakatlarida 50% aholida ortiqcha tana og'irligi indeksi me'yordan yuqori va abdominal semizlik mavjud. Semizlik mavjud odamlarning 97,8%ida qon aylanish tizimi kasalliklari qayd etilgan [27]. Haqli ravshda yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini XX-XXI epidemiyasi deyish mumkin. Negaki, barcha iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda bu tizim kasalliklari umumiy o'lim sabablari ichida uzoq yillardan beri yetakchi o'rinni egalab kelmoqda. (52-55%). Rossiyada 31 mln kishi yurak qon-tomir kasalligiga chalingan, ularning 7 mln dan oshig'i yurakning ishimik kasalligi va har to'rttadan bir odam YuIK ga chalingan. Bugun Rossiyada har 100 000 kishidan 330 erkak va 154 ta ayol yurak infarkti miokardidan olamdan o'tadi [2].

Akimova Ye.V., G.S.Pushkarevlarning (2013) [2] bergan ilmiy xulosalariga ko'ra Rossiyada 70% arterial qon bosini kasalligiga chalinganlar ortiqcha tana vazniga ega, ularning 40%i semizlikdan aziyat chekadilar. 12 yil davomida kuzatilgan 795 ta erkakdan 85tasida (10,7%) va 813 ta ayoldan 33 (4,06%) o'lim holati kuzatilgan. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining oldini olish, tashhishlash va uni samarali davolashda hamda bemor holatini baholashda bemorlarning hayot sifati eng asosiy

omillardan biri sifatida e'tirof etilib, uni ilmiy jihatdan o'rganishning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati yaxshi samara beradi [7,8].

O'tgan asrning oxirlarida dunyoning boshqa mamlakatlari singari Rossiyada ham, yurak qon-tomir kasalliklarining tarqalishida uning yosharish xususiyati kuzatildi. Ayniqsa 25-35 yoshdagilar orasida uning tashxislanishi ikki barobarga oshganligi qayd etildi. E'tiborli jihati shundaki, o'rganishlar jarayonida "Siz qon bosimingizning oshganini bilasizmi?" degan savolga atigi 29% bemorlar "Ha" deb javob berganligining o'zi ko'plab bemorlarning o'z sog'liqlariga bee'tiborligini ko'rsatadi va bu kabi bemorlar shifokorga kasallikning og'ir darajalarida murojaat qiladilar. Semirish bugun epidemiya tusini olgan. 2013 yilda Amerika mutaxassislar assotsitsiyasi va Amerikalik endokrinologlari tomonidan klinik endokiniologiya sohasida semirishning yangi tasnifini taklif qildilar va spetsefik asoratlari bilan uni tana vazni indeksi (TVI) tashxisi bilan surunkali kasallik sifatida tan olindi. Kattalarda semirish bolalikdagi semirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. JSST ma'lumotiga qaraganda dunyoda ortiqcha tana vazni va semirishning tarqalganligi 5-19 yoshdagi bolalar va o'smirlar orasida 1975-2016 yillarda 4%dan 18%ga oshgan. Ortiqcha tana vazni Rossiya Federatsiyasida 2016 yilda qizlarda 18%, o'g'il bolalarda 19%ni va semizlik mos holda 6 va 8%larga teng bo'lgan [5]. Ayniqsa kardiovaskulyar patologiyalar dunyo mamlakatlarida 4 milliondan ortiq o'limga sabab bo'lib, semizlik tufayli yuzaga kelayotgan patologiyalar ichida yetakchi o'rinni egallaydi [16]. 1980 yildan semirishning tarqalganlik darajasi dunyoda 2 marotabaga oshdi va mos ravshda qandli diabet kasalligining tarqalganlik darajasi ham oshgan. 2014 yilda 18 yoshdan kattalarda ortiqcha tana vaznining oshishi 39%ni tashkil qilgan bo'lsa, semizlik 13%ga teng bo'lgan. Eng asosiysi bu bolalar orasida katta muammoligicha qolib 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 41 mln bolada ortiqcha tana vazni (OTV) yoki semizlik mavjudligi qayd etiladi [17].

Balanova Yu.A., Shalnova S.A. va boshqalarning (2018) [6] ilmiy xulosalariga ko'ra, jami dunyodagi 671 mln semizlik mavjud odamlarning 50%i dunyoning 10 ta, ya'ni AQSH, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Braziliya, Meksika, Yegipt, Germaniya, Pakistan va Indoneziya davlatlarida yashaydilar, e'tiborli jihati shundaki, kuzatuv olib borilgan 33 yil davomida ushbu davlatlarda semirish bilan bog'liq ko'rsatkichlarda pasayish umuman kuzatilmagan. Semirish holatlari erkaklarga nisbatan ayollar orasida yuqori ekanligi qayd etiladi. Semirishning darajasi odamlarning yoshlari oshishi bilan ayollarda ham (10,7%dan 52,3% ga) erkaklarda ham (14,3%dan 36,3%ga) o'sib borishi kuzatilgan. Ko'plab chet el olimlari ortiqcha tana vazni va semirishni murakkab monoomilliy, multigen buzilishlarga kiritib, bu holatni asosan odamlarning ijtimoiy-ruhiy va madaniy-ma'naviy muhiti bilan bog'lagan holda tushuntiradilar. E'tiborli jihati shundaki, keyingi yillarda semirish va ortiqcha tana vazni na faqat yuqori daromatli balki, past daromatli davlatlarda ayniqsa shaharlarda bolalar orasida keng tarqalayotganligi qayd etiladi. Hozirgi davrda 30 mln dan ortiq bolalar rivojlanayotgan va 10 mln dan ortig'i rivojlangan davlatlarda yashadilar [30].

So'nggi 20 yillikda semizlik va ortiqcha tana vazni yurak qon-tomir kasalliklarining yuzaga kelishida yetakchi omil sifatida tug'ish yoshidagi ayollar orasida ham keng tarqalmoqda. Semizlikning tarqalganligi har xil davlatlarda 1,8%dan 25,3% gacha oraliqda kuzatilishi qayd etiladi. Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda semizlik homilador ayollarda 15-38% ga teng ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'z navbatida bepustlik, erta davrda bola tashlash, ona qornida bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarga olib kelishi va semizlarda xomiladorlik ko'p hollarda pereeklampsiya, gestatsion qandli deabet, gestatsion qon bosimi va shuningdek muddatidan oldin tug'ish holatlariga sabab bo'ladi. Mualliflar tadqiqot natijasida xulosa qiladilarki, xomiladorlarda semizlik va ortiqcha tana vazni onalarda perenatal kasallanish hamda o'limning oshishiga olib keladi [21]. Dunyo mamlakatlarida semirishning oshishi bilan aholi orasida 2 tipdagi qandli diabet, arterial gipertenziya, yurakning ishemik kasalliklari, o'smirlar va boshqa kasalliklar ko'payishi bilan birga, bemorlarning hayot sifatining va mehnat qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) bergan ma'lumotiga qaraganda Yevropada semirish va uning asoratlari bilan bog'liq holda har yili 320 mingdan ortiq odam vafot etadi. Muallifning ta'kidlashicha, vistseral semirish va organizmdagi patologik buzulishlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda kechadigan jarayon. Bittasida kechadigan noxush holat ikkinchisiga va aksincha, natijada metabolik sindrom rivojlanadi. Keyingi o'n yilliklarda bu muammoga kompleks yondashilmoqda, sababi har qaysi jarayon yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining rivojlanishida xavf omil bo'lib xizmat qiladi va makrotomirlar aterosklerotik kasalliklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [8].

Hozirgi davrda semirish kasalligiga chalingan bemorlarni davolash darajasi juda past va samarasiz, negaki ko'pchilik bemorlar davolashdan keyin tez oldingi holatiga keladilar, aksariyat hollarda undan ham ortiqcha tana vazniga ega bo'ladilar. Semirishdan davolanishning samaradorligi ko'p jihatdan bemorning bu holatga tayyorligiga, to'g'ri mativatsiyasiga ya'ni ozishga bemor tomonidan berilgan to'g'ri ijtimoiy holatiga, o'z kasalligini har kuni boshqara olishiga va ozish uchun amalga oshirilayotgan o'qitishning maqsadini to'g'ri anglashiga bevosita bog'liq bo'ladi [8,34]. V.N.Shishkovaning (2016) [34]

ta'kidlashicha bugun dunyoda 1,7 mlrd odamda semizlik yoki ortiqcha tana vazni mavjud. Ekspertlarning bashorat qilishicha 2025 yilga borib uning soni ikki barobarga oshishi aytilmoqda. Shu boyis JSST tomonidan semizlik yangi noinfektsion epidemiya sifatida tan olingan. Ayniqsa abdominal qismdagi to'planadigan yog' ko'p hollarda yurak qon-tomir kasalliklari va 2 tipdagi qandli diabetning rivojlanishida yetakchi omil bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Yevdakimova Ye.Yu., U.Yu.Papovalarning (2017) [17] ilmiy xulosalariga asoslanib qayd qilish mumkinki, oxirgi yillarda semizlik va ortiqcha tana vazni bolalar orasida ham keng tarqalgan. Mualliflarning ta'kidlashlaricha 10% bolalarda klinik semirish mavjud, shuningdek o'spirinlar ichida ham bu holat sezilarli darajada yuqori va ular katta bo'lganlarida ham bu holat davom etishi kuzatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatganki, bolalarda semirish oilaviy shaklda kuzatilgan va uning 25%i irsiy, ya'ni genetik omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Metabolitik sindrom aniqlangan bolalarning 5%i -1 yoshgacha, 18%i -1 yoshdan 3 yoshgacha, 28%i -4 yoshdan 7 yoshgacha va 32%i -7 yoshdan kattada kuzatilgan.

Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari ichida aholi orasida eng ko'p tarqalgan kasalliklardan qon bosimi bo'lib, uning yuzaga kelishida semizlikning tutgan o'rni katta. I.V.Samorodskayaning [31, 33] ilmiy izlanish natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasida 1998-1999 yillarda arterial qon bosimi 1,9 barobarga oshgan, ya'ni har 100 mingta aholiga 2259 dan 4303 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1999-2006 yillarda bu ko'rsatkich 8792 ga yetganligi qayd etiladi [14,31]. Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida amalga oshirilgan ilmiy izlanish natijasiga ko'ra katta yoshli aholi orasida qon aylanish tizimi bo'yicha umumiy kasallanish har 100 ming aholiga 2005 yilda -402,6 dan 2008 yilda -454,9 ga, ya'ni ko'payish 13%ni tashkil etib, undan o'lim ko'rsatkichi har 100 ming aholiga 2008 yilda -890,1 ga, 2009 yilda -857,1 ga teng bo'lganligi va shu sababli vaqtincha mehnatga yaroqsizlik kunlar 2009 yilda erkaklarda -1002852 kunni, ayollarda -986875 kunni tashkil qilgan. Qon aylanish tizimi kasalliklaridan o'limning asosiy qismi insult va o'tkir infarkt miokardga to'g'ri kelganligi ta'kidlanadi. [28]. RF ning Ryazan viloyatida A.V.Danilov, I.I.Kobzar va b.lar (2019) [14]. tomonidan amalga oshirilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha viloyatda infarkt miokard, miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi, miya infakti va tranzitor ishemik xuruj kasalliklardan birlamchi kasallanishning o'sishi kuzatilgan. Ya'ni, 1918 yilda qon aylanish tizimi kasalliklaridan arterial qon bosimi (1005,0/100000 ta aholiga), yurakning ishemik kasalligi (1256,0/100000 ta aholiga) va tserebrovaskulyar kasalliklar (1060,7/100000ta aholiga) shular jumlasiga kiradi. Qon aylanish tizimi kasalliklarida o'lim ko'rsatkichi 602,6/100000 ta aholiga teng bo'lib, Rossiyaning o'rtacha ko'rsatkichidan (573,6/100000) sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etiladi. Viloyatda qon aylanish tizimi kasalliklaridan umumiy kasallanish o'rganilgan 5 yilda o'sish an'anasiga ega (49,7%). Shuningdek qon bosimi (69,8%),yurakning ishimik kasalliklari (46,8%) va tserebrovaskulyar kasalliklarda (26,7%) dinamikada oshish kuzatilgan.

Agar Rossiyada 1998 yilgacha arterial qon bosimi kasalligining tarqalishida bir muncha kamaygan bo'lsa, 1999 yildan uning oshishi kuzatilgan. Faqatgina bir yilning o'zida (1999-1998yy) qon bosimi kasalligining ko'payishi 90%ni tashkil etgan. 2003 yilda uning darajasi 1993 yilga nisbatan 2,7 marotabaga, shu davrga qon aylanish tizimi kasalliklari 1,6 marotabaga o'sishi kuzatilgan [32]. V.V.Gafarov, Ye.A.Gromova va b.larning (2016) [13] ta'kidlashlaricha, 24-64 yoshdagi aholi orasida infarkt miokard va insult kasalligining rivojlanishida hayotiy charchash, ya'ni toliqishning ahamiyati katta ekanligi ko'rsatilib, bu holat ayniqsa 45 yoshdan keyin ma'lumoti past, oilaviy hayotiy baxtsizlikka uchragan erkaklarda infarkt miokard, ayollarda esa insult kasalligining ko'proq rivojlanishiga sabab bo'lishi qayd etiladi. Kontsevaya A.V., A.O.Mirzamatovalarning (2018) [20] amalga oshirgan qo'shma ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining taxlili shuni ko'rsatdiki, (Samara viloyati va Qirg'iziston Respublikasi) har xil iqlim-geografik sharoitlarda yashayotgan odamlarda ularning turmush tarzidagi madaniyatida, iqlimida, ijtimoiy holatida, ayniqsa ovqatlanishida sezilarli darajada farqlari bo'lsada, ular orasida qon aylanish tizimi kasalliklarining yuzaga kelishida yetakchi xavf omili tamaki chekish, qon bosimi va me'yorida ortiq darajada hayvon yog'ini iste'mol qilish ekanligi aniqlangan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning ilmiy xulosalaricha, kattalardagi mavjud yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining paydo bo'lishidagi asosiy omillar bolalikdan boshlanib shakllanadi. Bu omillarga birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan yashash joy sharoitlari – bitta kishiga to'g'ri keladigan yashash maydoni, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, sifatli ichimlik suvi, kanalizatsiya, markaziy isitish tizimi bilan ta'minlanganlik darajasi kabi silbiy omillar kiradi [28].

Xulosa

Yuqorida taxlil qilingan adabiyotlar va ularda keltirilgan ma'lumotlardan xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda, jumladan Xorazim viloyatida ortiqcha tana vazni va semizlik mavjud aholi

orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining tarqalishi va uning asoratlari, nogironlik va o'lim sabablarining tibbiy-ijtimoiy jihatlarida juda kam o'rganilgan. Bajirilgan mavjud ilmiy tadqiqot ishlarning dearli ko'pchiligi Yevropa davlatlarida, xususan Rossiyada, Ukraina va uning alohida xududlarida amalga oshirilgan. Mamlakatimizda, jumladan noqulay ekologik vaziyat yuzaga kelgan Xorazm viloyati misolida ham ortiqcha tana vazni va semizlik mavjud aholi orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklari va uning natijasida yuzaga kelayotgan nogironlik va o'lim holatlarining yil sayin oshib borishi, qolaversa kelgusida uni kamaytirishning zarur chora-tadbirlarini ishlab chiqish, mazkur ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Артюнина Г.П., Коматресова Т.М. Динамика показателей заболеваемости и смертности от болезней сердечно-сосудистой системы в Российской Федерации и г. Пскове //XV Конференция посвящена Будущему России. 221-228 стр. Россия. 2018.
2. Акимова Е.В и Пушкарев Г.С. Риск сердечно-сосудистой смерти в зависимости от показателя индекса массы тела у мужчин и у женщин города Тюмени. //Российский кардиологический журнал. №3. (101) 24-28 стр. 2013.
3. Аметов А.С., Пашкова Е.Ю. и др. Ожирения как неинфекционная эпидемия XXI века. Современные представления о патогенезе, рисках и подходах к фармакотерапии. //Эндокринология. Новости, мнения, обучения. Том 8.№2. 57-66 стр. Россия. 2019.
4. Барабаш О.Л., Каретникова В.Н. и др. Избыточная масса тела и ожирения среди жителей Кемеровской области: распространенность, ассоциация с факторами сердечно-сосудистого риска. //Кардиология. Новости, мнения, обучения. №4. 44-48 стр. Россия. 2016.
5. Балаева Е.С. и др. Оценка качества жизни, релевантного здоровью, больных ишемической болезни сердца. //Saratov Journal of Medical Scientific Reseach. Vol 9.№ 1. 145-147 p. Россия. 2013.
6. Баланова Ю.А. и др. Ожирение в Российской популяции-распространенность и ассоциации с факторами риска хронических неинфекционных заболеваний //Российский кардиологический журнал. №23(6).-с.123-130.Россия. 2018.
7. Болотова Е.В. и др. Взаимосвязь индекса массы тела и абдоминального ожирения на примере сельской популяции Краснодарского края. //Ожирения и метаболизм. 13(1): 25-31 стр. Россия.2016.
8. Бутрова С.А., Дзгоева Ф.Х. Висцеральное ожирение – ключевое звено метаболического синдрома //Ожирение и метаболизм. №1.10-16 стр.Россия. 2004.
9. Бутрова С.А.,Плохая А.А. Лечение ожирения: современные аспекты. РМЖ №24(9).-с.1140-1146. Россия. 2000.
10. Вербовой А.Ф., Шаронова Л.А. Ожирение: эпидемиологические и социально-экономические аспекты, профилактика //Эндокринология новости, мнения обучение. Том 8.-№ 3.87-97 стр. Россия. 2019.
11. Веселовская Н.Г., Чумакова А.Г. Ожирение и беременность: сердечно-сосудистые и метаболические риск //Российский кардиологический журнал №24(4).48-52 стр. Россия. 2019.
12. Волобуев Д.К., Рыжаева В.Н. Заболеваемость населения России и Курской области болезнями сердечно-сосудистой системы //Международный научный журнал “Символ науки”, №3/162-163стр. Россия.2016.
13. Гафаров В.В., Громова Е.А. и др. Тенденция заболеваемости и смертности от сердечно-сосудистых заболеваний у населения Сибири //Клиническая медицина, 94 (8). 601-608стр. Россия. 2016.
14. Данилов А.В., Кобзарь и др. Заболеваемость и смертность от сердечно-сосудистых заболеваний в Рязанской области: 2014-2018 гг. //Наука молодых (Eruditio Juvenium) Т.7.-№3.439-449. Россия. 2019.
15. Дедов И.И., Бутрова С.А, Савельева Л.И. Эффективность мотивационного обучения больных ожирением //Ожирение и метаболизм. №2.25-29 стр. Россия. 2004.
16. Дружилов М.А., Дружилова О.Ю. и др. Ожирение как фактор сердечно-сосудистого риска: Акцент на качество и функциональную активность жировой ткани //Российский кардиологический журнал, №4 (120).-с. 111-117. Россия. 2015.
17. Евдокимова Е.Ю., Папова У.Ю. Ожирение у детей. Метаболического синдрома у детей //Вестник совета молодых учёных специалистов Челябинской области. №2(17).-Т.1.16-19 стр. Россия. 2017.

18. Искаков Е.Б. Эпидемиология сердечно-сосудистых заболеваний. //Медицина и экология. 2. 19-28 стр. Узбекистан.2017.
19. Кузнецова Т.Ю., Дружилов М.А. и др. Стратегии и методы коррекции ожирения и ассоциированного сердечно-сосудистого риска //Российский кардиологический журнал.№24(4).62-67стр. Россия. 2019.
20. Концевая А.В., Мырзаматова А.О. и др. Результаты 4-летнего проспективного наблюдения в исследовании Интерэпид: факторы, влияющие на заболеваемость и смертность популяции в сельских регионах России и Кыргызской Республики //Кардиоваскулярная терапия и профилактика, №17 (2). 49-56 стр. Россия.2018.
21. Жолдасбекова А.С., Калматбаева Ж.А. Современные подходы к изучению качества жизни в медицине и кардиологии. //Вестник. №3. 246-251 стр. Узбекистан. 2016
22. Нагибина Ю.В., Ибатов А.Д. и др. Медико-социальные характеристики и качество жизни больных ишемической болезнью сердца. The problems of social hygiene , public health and history of medicine. 25 (2) .84-87 стр. Россия. 2017.
23. Naghavi M., Wang H., Lozano R. et al. Global, Regional, and national age-sex specific all-cause and cause-specific mortality for 240 causes of death, 1990-2013: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2013/ Lancet 2015; 385:117-71.
24. Лавлинская Л.И., Черных Е.А. Социально-гигиеническая характеристика трудоспособного населения с сердечно-сосудистой патологией //Международный научно-исследовательский журнал. №7(38).-С.32-34. Россия. 2008.
25. Мешков Н.А. Математическое моделирование сердечно-сосудистой заболеваемости под влиянием бытовых условий //Гигиена и санитария.№6.-99-103 стр. Россия. 2014.
26. Митченко Е.И.и соавт. Актуальные аспекты сердечно-сосудистого риска в городской популяции Украины. Актуальные аспекты сердечно-сосудистого риска в городской популяции Украины. //Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. Том 2, №2. 16-24 стр. Украина. 2014.
27. Obesity and overweight. Fast sheet/ Updated june 2016 [Electronic resource]. URL: Key takts Worldwide obesity has more than doubled since 1980.
28. Попов А.В., Максимов Н.Н., Бывальцев А.С. Анализ прогноз показателей заболеваемости и смертности и сердечно-сосудистой патологии у городских и сельских жителей //Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Том 16.-№5(2).927-929 стр. Россия. 2014.
29. Посохова С.Т. Медико-социальные аспекты сердечно-сосудистых заболеваний //Всероссийский форум “Пироговская хирургическая неделя” к 200-летию Н.И.Пирогова.34-35 стр. Россия. 2020.
30. Разина А.О., Ачкасов У.У., Руненко С.Д. Ожирение: современный взгляд на проблему //Ожирение и метаболизм. 2016. №13(1).3-8 стр. Россия.
31. Самородская И.В. Сердечно-сосудистая заболеваемость и факторы риска сердечно-сосудистых событий в Российской Федерации //Кардиоваскулярная терапия и профилактика, 2005.-№4 (8).- ч. 11.-94-100.
32. Свистунов А.А., Головачева Т.В. и др. Частота сердечных сокращений как фактор риска развития сердечно-сосудистых заболеваний //Артериальная гипертензия, 2008. Том 14.-№4.- С.324-331. , 2008.
33. Смородская И.В. Сердечно-сосудистые заболевания: принципы статистического учета и корректность сопоставлений между странами //Кардиоваскулярная терапия и профилактика. №8(8).72-77 стр. Россия. 2009.
34. Шишкова В.Н. Механизмы развития сердечно-сосудистых заболеваний при ожирении и инсулинорезистентности: фокус на атеротромботические осложнения //Российский кардиологический журнал. №9(137).72-78 стр.Россия. 2016
35. Чумакова Г.А., Кузнецова Т.Ю., Дружилов М.А. и др. Вицеральное ожирение как глобальный фактор сердечно-сосудистого риска //Российский кардиологический журнал. №23 (5). 7-14 стр. Россия. 2018.

Qabul qilangan sana 20.10.2022